O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Iqtisodiyot fakulteti dekani v.b.
U.Eshmuradov
2026-yil "26" 06

Makroiqtisodiyot 1

FANINIG O'QUV DASTURI

(masofaviy ta'lim shakli)

Bilim sohasi:	400000	- Biznes,boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000	-Biznes va bosharuv
Ta'lim yo'nalishi:	60410100	-Iqtisodiyot

Samarqand – 2026

Mazkur o'quv dasturi Iqtisodiyot fakulteti Kengashining 2026-yil 26.06 11 -sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

Mazkur o'quv dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi tomonidan taqdim etilgan (kafedraning 2026-yil 26.06 11-sonli yig'ilish bayoni).

Tuzuvchilar:

Salamov I- Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi dotsenti.

Ulmasova O. B – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi assistenti

Taqrizchilar:

Q.J.Mirzaev- Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi mudiri, i.f.d., professor

J.M.Qayumov- O'zbekiston "Savdo sanoat palatasi" Samarqand viloyati Boshqarmasi inson resurslari va ijro nazorati bo'yicha bosh mutaxasssisi

1.	Fan ma'lumotlari						
Fan/modul kodi MAKIQ21405	O'quv yili 2026-2027	Semestr 4				ECTS – Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	O'quv rejadagi tartib raqami 60410100 – 1,19				Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi Makroiqtisodiyot 1	Jami yuklama (soat)	Auditoriya mashg'ulotlari jami – 60 soat, shundan:				Mustaqil ta'lim (soat)	Kurs ishi
		Ma'ruza	Amaliy	Lab-ya			
	150	30	30	-		90	-

2.	Fanning mazmuni
	Fanning maqsadi – talabalarga zamonaviy bozor iqtisodiyotining islashi va rivaj lanishining ham nazariy, ham amaliy tomonlarini o'rgatish hamda bozor sub'yektlarining har xil bozor tuzilmalaridagi iqtisodiy faoliyatini o'rganish bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakani shakillantirishdir. Fanning vazifalari – iqtisodiyotda tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni chukurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan borg'lik masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda Makroiqtisodiyot 1 fani muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bugungi kunda hukum surayotgan globallashuv sharoitida, qarashlarni sababiy bog'liklikda tizimli tahlil etishda "Makroiqtisodiyot 1" fani alohida o'rin tutadi.

3.	Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar
1.	(IQN1211210) Iqtisodiyot nazariya 1,2....
2.	(MIKIQ1213410) Mikroiqtisodiyot 1,2
3.	(IQS1305) Iqtisodiy siyosat

4.	Ta'lim natijalari (TN)
	Kasbiy kompetensiyalar:
TN1	Zamonaviy bozor iqtisodiyotining islashi va rivojlanishining ham nazariy, ham amaliy tomonlarini o'rgatish hamda bozor sub'yektlarining har xil bozor tuzilmalaridagi iqtisodiy faoliyatini o'rganish bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakillantirish bo'yicha bilimga ega bo'lishlari kerak;

TN2	Milliy daromadni yaratilishi, taqsimlanishi va ishlatilishini; pul tizimi, banklar va pul bozorini makroiqtisodiy jarayonlarga ta'sirini; inflyatsiya va uning iqtisodiy oqibatlarini ;me'yorlarini belgilashni bilishlari lozim;
TN3	Ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy jarayonlarning kechishini; ishsizlik, uning ko'rinishlari va iqtisodiy oqibatlarini; iqtisodiy o'sish jarayonlarni va modellari haqida bilimga ega bo'lishlari kerak;
TN4	Iqtisodiyotda tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni chukurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan borg'lik masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda Makroiqtisodiyot 1 fani muhim ahamiyatini bilishi kerak;
TN5	Bugungi kunda hukum surayotgan globallashuv sharoitida, qishloq xo'jaligida yaratilayotgan mahsulot, tovar va xizmatlar narxining o'zgarishi, foydani maksimallashtirish, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishni bilishi kerak;
	Ko'nikmalar:
TN6	Makroiqtisodiy voqeliklar va jarayonlarni oddiy ravishda izohlabgina qolmay, shu bilan birga ular o'rtasidagi qonuniyatlarni va bog'liqliklarni aniqlaydi, iqtisodiyotdagi sabab-oqibat aloqalarini biladi va ulardan foydalana olishni. tahlil qilishni biladi.
TN7	Makroiqtisodiy bog'liqliklar va aloqalarni bilish iqtisodiyotdagi mavjud vaziyatni baholashga imkon beradi va uni yaxshilash uchun nima qilish va birinchi navbatda siyosat vakillar qanday chora ko'rishlari kerakligini ko'rsatadi, ya'ni iqtisodiy siyosatni tamoyillarini ishlab chiqishga ko'nikmalariga ega bo'ladi.
TN8	Makroiqtisodiyotni bilish kelajakda jarayonlar qanday rivojlanishini oldindan ko'rish, ya'ni prognozlar tuzish, kelgusidagi iqtisodiy muammolarni oldindan ko'rishga muhit omillar va qonuniyatlariga baho bera oladi.

5.	**Fan mazmuni va mashg'ulotlar shakli:**	**Soat**
	Ma'ruza (M)	**30**
M1	**Makroiqtisodiyot-1 faniga kirish** *Makroiqtisodiyot fanining nazariy asoslari, shakllanishi va rivojlanishi. Makroiqtisodiyot kursining predmeti va ob'yekti. Makroiqtisodiyotning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi. Iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiy tahlil, mokroiqtisodiyot. [1,1]*	2
M2	**Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash** *Makroiqtisodiyot fanining milliy hisobchilik tizimidagi roli va o'rni. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash asosi. Yalpi ichki mahsulot.*	2

qo'yilsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- bayon qilish ravon bo'lmasa;
- fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

e) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:
- fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;
- fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajarmagan bo'lsa;
- fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;
- fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;
- fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.

10.	**Foydalanilgan adabiyotlar**
	Asosiy adabiyotlar
1.	Yakubov I.O., Hakimov H.A. Makroiqtisodiyot-2. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2019. - 217 bet
2.	Djumaev Z.A. Макroiqtisodiyot O 'quv q 'ollanma , Toshkent 2018. - 300 bet
3.	Muxammedov M.M.,Normurodov U.N.,Xalikov Y.M.Makroiqtisodiyot 2 O 'quv q 'ollanma ,Samarqand .2022-162 bet
	Qo'shimcha adabiyotlar
4.	IshmuhamedovA.E.,Djumaev Z.A.Jumaev Q. Makroiqtisodiyot O'quv qo'llanma. Toshkent, 2015-279bet
5.	Salimov B.T. va boshqalar Makroiqtisodiyot 1, Darslik. Toshkent , 2019. – 390 b.
6.	Самуэльсон, Пол Е., Нордхаус, Вилям ДММакроэкономика,1изд.:пер. с англ,-М.: ООО «И.Д. Вилямс»,. 5 2011- 592 с.
	Axborot manbaalari
7.	***https://openstax.org/details/books/principles-macroeconomics-3e?utm_source=chatgpt.com***
8.	***https://www.core-econ.org/the-economy/?utm_source=chatgpt.com***
9.	***https://open.umn.edu/opentextbooks/textbooks/127?utm_source=chatgpt.com***
10	***https://www.infobooks.org/free-pdf-books/business/economics/?utm_source=chatgpt.com***

- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

8.	Talabalar tomonidan kridetlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

9.	Talabalar bilimini baholash mezoni

a) 5 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini to'liq yorita olsa;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- barcha amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan bo'lsa;
- nazariy bilimlarni turli vaziyatda qo'llay olish;
- tizimli yondashish, uzviylikka amal qilish.

b) 4 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushingan bo'lsa;
- fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirisida bajarsa;
- fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- barcha amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga harakat qilgan bo'lsa.

d) 3 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
- fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l

	Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari. Milliy hisoblar tizimida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. [1,1]	
M3	**Bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi .** *Iqtisodiy davr tushunchasi va uning bosqichlari. Iqtisodiy davrlarning yuzaga kelish sabablari va dastlabki ko'rinishlari. Iqtisodiy davrlarning asosiy tiplari. Iqtisodiy davrlarning ta'siri. Davlatning davriylikka qarshi siyosati. [1,1]*	2
M4	**Ishchi kuchi unig bandligi va ishsizlik.** *Ishsizlik tushunchasi va ishsizlikning o'lchanishi. Ishsizlik turlari. Ish o'rnini ta'minlash. Ish o'rnilarining bir qator belgilari. Ish o'rinlarini tashkil etish, rejalashtirish va xizmat ko'rsatish. Ishsizlik tasnifi. Ishsizlik turlari. Tabiiy ishsizlik Majburiy ishsizlik. Tarkibiy ishsizlik. [1,1]*	2
M5	**Inflatsiya va inflatsiya siyosati.** *Inflatsiya tushunchasi, mohiyati va mazmuni. Inflatsiyaning yuzaga kelish shart-sharoitlari. Inflatsiyaning ko'rsatkichlari va ularni o'lchanishi. Inflatsiyaning o'sish sur'atlariga ko'ra turlari. Inflatsiya sabablari. Inflatsiyani oldini olish chora tadbirlari. Inflatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Inflatsiyaga qarshi davlat siyosati. [1,2]*	2
M6	**Yalpi talab – yalpi taklif modeli.** *Yalpi talab tushunchasi. Yalpi talabga va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar. Yalpi taklif tushunchasi. Yalpi taklifga ta'sir etuvchi omillar. AD-AS modelida narxlar. Yalpi taklif modeli va uni amalga oshirish yo'nalishlari. Milliy ishlab chiqarish real hajmining muvozanatli darajalari. Davlat budjeti orqali yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi. [1,2]*	2
M7	**Iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari.** *Iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari. Iste'mol va jamg'arishga chegaralangan hamda o'rtacha moyillik. O'zbekistonda iste'mol va jamg'arish jarayonlari xususiyatlari. Investitsiya haqida tushuncha, ularning iqtisodiy mazmuni, ahamiyati zaruriyati. Investitsiya turlari va shakllari. Investitsiya xarajatlari va ularning tiplari. Investitsiya grafigi va funktsiyasi. Investitsiyalar va jamg'armalar o'rtasida bog'liqlik. [1,2]*	2
M8	**Pulga talab funksiyasi. Pul taklifi.** *Pul tushunchasi va uning funksiyalari. Pul agregatlari. Pul taklifi. Bank multiplikatori. Pul taklifininf kengaytirilgan modeli. Pul multiplikatori.* *Pul nazariyalari to'g'risida umumiy tushuncha Pul nazariyalarining kelib chiqishi, turlari va namoyondalari. Pulning metallik nazariyasi. Pulning nominallik nazariyasi.. [2,3]*	2
M9	**Pul bozorida muvozanat.** *Pulning miqdoriylik nazariyasi. Zamonaviy monetarizm nazariyasi. Pulga talabning klassik nazariyalari. Keynscha pulga talab nazariyalari. Pul bozorida muvozanat. [2,3]*	2

M10	***Davlat byudjeti va soliqlar. Davlatning byudjeti – soliqlar siyosati.*** *Budjet-soliq siyosati. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi, uning bo'g'inlari. Budjet tizimining asosiy tamoyillari. Turli darajadagi buydjetlar o'rtasida daromad va xarajatlarni taqsimlash asoslari. Budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakllari. Budjet taqchilligi va uni moliyalashtirish vositalari. Soliqlarning turlari va funksiyalari. Davlat qarzlari. Budjet-soliq siyosatining mohiyati va usullari. Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiscal siyosat. [2,3]*	2
M11	**Bank tizimi. Pul-kredit siyosati** *Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi va uning shakllanish bosqichlari. Xorijiy davlatlar bank tizimi. Bank faoliyatining iqtisodiy, me'yoriy-huquqiy va tashkiliy asoslari. Zamonaviy bank tizimining xususiyatlari. Moliya-kredit institutlari. Pul-kredit siyosatining maqsadlari. Pul-kredit siyosatining vositalari. Ochiq bozordagi operatsiyalar va hisob stavkasi. Majburiy zahiralash normasi. Qattiq –kredit siyosati. Yumshoq pul-kredit siyosati. [2,3]*	2
M12	**Iqtisodiy o'sish: umumiy tavsifi.** *Iqtisodiy o'sihning umumiy tavsifi, mazmuni, neokeynscha va neoklassik modellari. Iqtisodiy o'sih omillari va tiplari. Iqtisodiy o'sishning Xarrod Domar modeli, vujudga kelishi, uning qo'llanilish sohasi va o'ziga xos xususiyatlari. [2,3]*	2
M13	**Neokeynscha va Neoklassik modellari .** *Iqtisodiy o'sihning Solou modeli, uning qo'llanilish sohasi va o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish. O'zbekistonda o'sish sur'atlari. Davlat tomonidan ko'rilayotgan chora tadbirlar va erishilgan yutuqlar. [2,3]*	2
M14	**Ishlab chiqarish xarajatlari.** *Korxonaning qisqa muddatli va uzoq muddatli oraliqdagi faoliyati.Xarajatlar to'g'risida tushuncha. Boy berilgan imkoniyatlar va alternative xarajatlar. Ichki va tashqi xarajatlar.O'zgarmas, o'zgaruvchan, o'rtacha va chekli xarajatlar. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash. [2,3]*	2
M15	**Mukammal raqobatlashgan bozorda, qisqa va uzoq muddatli oraliqda firma foydasini maksimallashtirish va uning taklifi.** *Mukammal raqobatlashgan bozor va uning shartlari. Raqobatlashuvchi firmaning, yalpi, o'rtacha va chekli daromadlari. Korxona foydasi. Korxona foydasini maksimallashtirishni nazariy jihatdan asoslash va uni grafik usulda tahlil qilish. Firmaning zararsiz ishlash nuqtasi. Firma xarajatlarini minimallashtiradigan holat. [2,3]*	2
	Amaliy mashg'ulot (A)	**30**
A1	Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash.	2
A2	Bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi .	2
A3	Ishsizlik va uning turlari, ulrni kamaytirish imkoniyatlari.	2
A4	Ishchi kuchi va bandlik.	2
A5	Inflatsiya va inflatsiya siyosati.	2

A6	Yalpi talab va taklif modeli.	2
A7	Iste'mol, jamg'arish, investitsiya va ularning funksiyalari.	2
A8	Keiynsning tovarlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat modeli	2
A9	Pulga talab funksiyasi. Pul taklifi.Pul bozorida muvozanat.	2
A10	Davlat budjeti. Soliqlar va ularning turlari. Bank tizimi.	2
A11	Pul-kredit siyosatining maqsadlari.	2
A12	Tovar va pul bozorlarining birgalikdagi muvozanati.	2
A13	Iqtisodiy o'sish: umumiy tavsifi, neokeynscha va neoklassik modellari.	2
A14	Xalqaro savdo nazariyalari.	2
A15	Iqtisodiy o'sih omillari va tiplari	2

6.	**Mustaqil ta'lim topshiriqlari***	**90**
1	Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida korxona foydasi va uni maksimallashtirish yo'llari.	10
2	Talab va taklif qonuniga ko'ra narx belgilash usullari. Talab va taklif asosida soliq yukini hisoblash. Talab va taklif elastikligiga ko'ra soliq yukini hisoblash Ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish shartlari.	10
3	Korxonaning zararsiz ishlash nuqtasini hisoblash yo'llari.	10
4	Raqobatlashgan bozorda, qisqa muddatli oraliqda firma foydasini maksimallashtirish va uning taklifi. Raqobatlashmagan bozor sharoitida monopol narxlar. Raqobatlashmagan bozor sharoitida monopol narx belgilash va bozor hokimiyati	10
5	Mehnat bozori. Korxonalarda mehnat resurslaridan foydalanish. Kapital qo'yilmalar va kapital bozori.	10
6	Ishlab chiqarish jarayoniga yangi, samarali texnologiyalarni tatbiq qilish zaruriyati va istiqbollari.	10
7	Milliy hisoblar tizimida yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini hisoblash shartlari va usullari.	10
8	Iste'mol va jamg'arish, ularning funksiyalari	10
9	Iqtisodiy o'sish: umumiy tavsifi, neokeynscha va neoklassik modellari. Xalqaro savdo nazariyalari. Tashqi savdo siyosati.	10

***Izoh:** Fan (modul) yuzasidan talabalar bajaradigan mustaqil ish topshiriqlari variativ tavsifga ega bo'lishi lozim. Mustaqil ish topshiriqlarining 1/3 qismi kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash (kooperativlik)ga mo'ljallangan.*

7.	**Ta'lim texnologiyalar va metodlari**
	➢ ma'ruzalar; ➢ amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; ➢ interfaol keys-stadilar; ➢ blits-so'rov;